



Sovet davrida O'zbekiston shaharlari

Rajabov Alisher Shavkatovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti „Ijtimoiy fanlar“ kafedrasi dotsenti

Latipov Behruz Barotovich,

Yusupova Bonu Hamdamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 3/3tarix 22 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaharlar rivojlanishi, shaharlar tipologiyasi va klassifikatsiyasi, urbanizatsiya jarayonlari, shaharlar sonining oshib borishi, shaharlar aholisi, madaniyati, shaharlar iqtisodiy taraqqiyoti, sanoat shaharlari, kommunikatsiya, ekologiya muammolari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy taraqqiyot, sanoat shaharlari, O'zbekistonda urbanizatsiya.*

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ma'muriy jihatdan 1925-yilda dastlab Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xo'jand, Buxoro, Namangan, Zarafshon, Surxon daryo, Qashqadaryo, Xorazm 22 uyezd va 241 volostga bo'lingan. 1926-yilda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirilgan. 1987-yilda 12 ta viloyat Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo 155 rayon, 123 shahar, 95 ta posyolka hamda Toshkent shahri kirgan. O'zbekiston SSR poytaxti 1925-yil fevraldan to may oyigacha Buxoro shahri bo'lgan. 1925-yil maydan to 1930-yil dekabrigacha Samarqand shahri poytaxt bo'lgan. 1930-yil oxiridan poytaxt Toshkentga ko'chgan. Samarqand viloyati 1887-yil 1-yanvarda sobiq Zarafshon okrugi o'rnida tuzilgan. Tarkibiga Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax va Xo'jand uyezdlari kirgan. Turkiston o'lkasining janubi-g'arbida, 65°20' va 71°20' sharqiy uzunlik va 38° va 41° shimoliy kenglikda joylashgan. Shimol, shimoli-sharq



va shimoli-g'arbda Sirdaryo viloyati, sharqda Farg'ona viloyati, g'arb va janubda Buxoro amirligi bilan chegaradosh bo'lgan. Samarqand viloyati shaharlarida kustar hunarmandchilik yaxshi, fabrika zavod sanoati esa, sust rivojlangan. Viloyatda 24 ta paxta tozalash zavodi, 5 ta vino, 2 ta pivo zavodi bo'lgan (1897). Samarqand viloyatidan chetga sholi, paxta, mayiz, quruq meva, un, teri, chorva, jun, ipak, yong'oq, vino chiqarilgan. Viloyat aholisi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko'plab chiqishlar qilgan. Ayniqsa, 1916-yilgi O'rta Osiyo qo'zg'olonida viloyat aholisi faol ishtirok etgan (qarang Jizzax qo'zg'oloni). 1924-yil O'rta Osiyo respublikalarida milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi munosabati bilan Samarqand viloyati tugatilgan. Urganch (1929-yilgacha Yangi Urganch) - O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi shahar, viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Amudaryoning quyi oqimi chap sohilida. Shovot kanali shahar o'rtasidan o'tib, Urganchni shimoliy va janubiy qismlarga ajratgan. Shimoliy qismida, asosan, turar joy binolari, ilmiy va madaniy maorif muassasalari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini, janubiy qismida esa ishlab chiqarish korxonalarini joylashgan. Har ikkala sohil bir-biri bilan ko'priklar orqali bog'langan. Aholisi 200 ming kishi (2020). Shaharga 1646-yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan asos solingan. Amudaryo o'z yo'nalishini o'zgartirib, Orol dengizi tomon oqa boshlaganidan so'ng Gurganj shahri (Ko'hna Urganch) suvsiz qolgan. Abulg'oziy Bahodirxon Gurganj, Vazir qal'a (shahar)larida va ular atroflarida tarqoq holda yashagan aholini ko'chirib Amudaryoning jan. qismlarida joylashtirgan va aholi o'rtnashgan hudud atrofini qal'a devori bilan mustahkamlab unga „Toza Urganch“, ya'ni „Yangi Urganch“ deb nom bergan. Shundan keyin qadimgi Gurganj shahrining nomi Ko'hna Urganch bo'lib qoldi. Yangi Urganch bilan Ko'hna Urganch oralig'i 170 km. Yangi Urganch (hozirgi Urganch) shahri Buyuk ipak yo'lida joylashganligi tufayli tez sur'atlar bilan rivojlangan savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Abulg'oziy Bahodirxonning og'li Anushaxon davrida (1664-89) Yangi Urganch yaqinida katta kanal qazilib, unga Shohobod



(Shovot) nomi qo'yilgan. Mahalliy tarixchi olimlarning ma'lumotlari bo'yicha, Yangi Urganch XVII-XVII asrlarda balandligi 4-5 metrli devor bilan o'ralgan qo'rg'on bo'lgan. Shaharchada taxminan 5 ming kishi yashagan; ko'plab mayda do'konlar, ustaxonalar ishlab turgan. 1873-yil avgust oyida Turkiston viloyati gazetasida Yangi Urganch haqida shunday deb yozgan. Kattaligi Orol bo'yidagi Kazalinskiy shahricha keladi, atrofi qal'a devorlari bilan o'rab olingan, Amudaryodan 12 chaqirim narida joylashgan kichkina shahar. Orol dengizidan to Xivaga kelguncha Urganchdek go'zal shahar yo'q. U bog'lar va ariqlar bilan o'rab olingan. O'sha davrda Yangi Urganchda 6 mingga yaqin aholi yashagan. 1889-yilda shaharda Yaroslavl manufakturasi korxonasi qashli paxta tozalash zavodi, XIX asr oxiri- XX asr boshlarida „Xayriya jamiyati“, RusOsiyo banki, rustuzem maktabi, xotin-qizlar maktablari ochildi. 1931-yilda viloyat teatri Xiva shahridan Urganchga ko'chib o'tdi. 1935-yilda shaharda o'qituvchilar instituti faoliyat ko'rsata boshladi. 1952-yilda Chorjo'y-Urganch-Qo'ng'iro't temir yo'li qurib bitkazildi. 1959-yildan Urganch Taxiato'sh issiqlik elektr stansiyasi energiyasini o'la boshladi, 1963-yilda O'rta Osiyo-Markaz magistral gaz quvuriga ulandi. Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941-yil 11-martda tashkil etilgan 1960-yil 25-yanvarda Andijon va Farg'ona viloyatlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1967-yil 18-dekabrda qayta tashkil etildi. Namangan viloyati respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqlari -Qurama va Chatqol tog'larining yon bag'rida joylashgan. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-sharqdan Andijon, janubidan Farg'ona, shimoliy va shimoli-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati bilan chegaradosh. Namangan viloyati 1941-yil 6-martda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan bundan oldin uning hududi Farg'ona viloyati tarkibiga kirgan O'zbekiston SSR tarkibida tashkil etilgan. Viloyat tarkibiga Kosonsoy, Namangan, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari hamda Namangan va Chust viloyatga



bo'ysunuvchi shaharlar kirgan. 1950-yilda Chortoq, 1952 yilda Zadaryo tumanlari tashkil topdi. Bu ikkala tuman ham 1959-yilda tugatilgan. 1960-yil 25-yanvarda Namangan viloyati tugatilib, uning hududi Andijon va Farg'ona viloyatlari Namangan shahri - Andijon shahriga bevosita bo'ysunuvchi tarkibiga kirgan. Viloyat 1967-yil 18-dekabrda tiklangan. Qayta tiklash davrida viloyat tarkibiga Zadaryo, Namangan, Pop, Uychi, Uchqo'rg'on, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari hamda Namangan shahri qo'shilgan. 1970-yilda To'raqo'rg'on, 1973-yilda Kosonsoy va Norin, 1980-yilda Chortoq tumanlari tashkil etilgan. 1969-yilda Chust, 1974-yilda Uchqo'rg'on, 1979-yilda Kosonsoy, 1983-yilda Chortoq, 1988-yilda Haqqulobod viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomini olgan. Shahrisabz O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi shahar Shahrisabz tumani ma'muriy markazi 1926-yildan Kitob-Shahrisabz vohasida Katta O'zbekiston trakti yoqasida joylashgan. Shahrisabz janubdan Tanxozdaryo, shimoldan Oqsuv daryosi oqib o'tadi. Shahrisabz O'zbekistondagi qadimiy shaharlardan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shaharga mil. av. 1ming yillikning o'rtalarida asos solingan. Shahrisabz mil. boshlarida va ilk o'rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan XIII asrdan Shahrisabz nomi ham urf bo'lgan. Shahrisabz hokimi Bobobek, Kitob begi Jo'rabek, amir Muzaffarning katta o'g'li Abdulmalik to'ra boshchiligida katta qo'shin bilan 1868-yilda ruslar bosib olgan Samarqand shahrini qaytarib olish uchun o'tlanishgan, ammo chekinishga majbur bo'lganlar. 1870-yil avgustda Turkiston gubernatori K.P. Kaufmanning buyrug'i bilan general Abramov qo'mondonligidagi maxsus qo'shin Shahrisabz va Kitobni bosib olgan. Biroq rus qo'shini qo'mondonligi Shahrisabz va Kitobni Buxoro amiri tayinlagan beklarga topshirib, Samarqandga qaytishgan. Shahrisabz 1920-yilgacha Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan. Shahrisabz aholisining asosiy qismi savdosotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. XVIII-XIX asrlarda shahrida 6 darvoza, 7 karvonsaroy va 6 ta madrasa, bir nechta bozor, shahar tashqarisida Namozgoh masjidi bor edi. XX-asr o'rtalarida shahrida „Hujum“, badiiy buyumlar, tikuvchilik, keyinroq pillakashlik fabrikalari ishlay boshladi. 1930-



1940 yilarda shahridagi tarixiy yodgorliklarning ahvoli achinarli holda bo‘lgan, ulardan omborxonalar, turar joy va boshqalar maqsadlarda foydalanilgan. Shahrisabz va uning tarixiy madaniy merosi ataylab keng doirada targ‘ib qilinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi“, 2-kitob “O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida“, Toshkent, 2000;
2. Azizxo‘jayev A., „Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar“, Toshkent, 2001;
3. Alimova D. A., Golovanov A. A., „O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari“, Toshkent, 2000;